

PREPARATINI QO'LLASH BO'YICHA YO'RIQNOMA

TARKIBI VA CHIQARILISH SHAKLI

Tabiiy o'simliklar ekstraktidan tarkib topgan, o'ziga xos hidga ega, jigarrang tusdagi (biroz cho'kma va xira ko'rinish bo'lishi mumkin), suyuq sirop bo'lib, himoyalovchi plombali 150 ml hajmdagi original flakonlarda qadoqlangan: (1) – himoyalovchi golografik yorliqli karton o'ramlar, (2) – me'yorlash qoshig'i – dozator, (3) – qo'llash bo'yicha yo'riqnoma.

Tarkibi:

Oddiy dastarbosh ekstrakti (Tanacétum vulgáre)	300mg
Moychechak ekstrakti (Matricãria chamomilla)	200mg
Qizilpoycha ekstrakti (Hypericum perforatum)	200mg
Mingyaproq ekstrakti (Achillea millefolium L.)	300mg
Bo'znoq ekstrakti (Helichrýsum arenárium L.)	200mg
Qovoq urug'i ekstrakti (Cucurbita pepo L.)	200mg

PREPARATNING TA'SIRI

Deparazitol —gijjalarga qarshi keng qamrovli ta'sirga ega bo'lgan preparat.

Ayniqsa Enterobius vermicularis, Trichuris trichiura, Ascaris lumbricoides, Ancylostoma duodenale, Necator americanus, Strongyloides stercoralis, Taenia solium, Trichinella spiralis, Trichinella nativa, Trichinella nelson gijjalariga yuqori samarali ta'sirga ega.

QO'LLANILISHI

- enterobioz;
- askaridoz;
- ankilostomidoz;
- strongiloidoz;
- trixotsefalez;
- trixinellez;
- tenioz;
- aralash gelmintozlarda.

QO'LLASH MUMKIN BO'LMAGAN HOLATLAR

Preparatning ba'zi tarkibiy ingridiyentlariga yuqori sezuvchanlik.

QO'LLASH USULI VA DOZALARI

Davolanish muddati va preparat miqdori, davolovchi shifokor tomonidan har bir bemorga yakka tartibda belgilanadi.

Deparazitol quyidagicha qo'llaniladi:

- Ichkariga kam miqdordagi suv bilan. **Enterobiozda 3 yoshdan katta bolalarga** - 5 ml.dan kuniga 1 maxal
- **Aralash gelmintozlarda** – ertalab va kechqurun 10 ml.dan 7 kun davomida. Agar kasallik alomatlari saqlanib qolsa, 3 haftadan sung davolash kursini qaytarish tavsiya etiladi.

Kattalarga va 14 yoshli bolalarga:

- **Trixinellezda:** 1-kun 10-15 ml.dan kuniga 3 mahal, 2-kun 10-15 ml.dan kuniga 4 mahal va 3- kundan 14-kungacha — 25 ml.dan kuniga 3 mahal.
- Askaridoz, trixotsefalez, ankilostomidoz, tenioz, strongiloidoz va aralash gelmintozlarda, barcha oila a'zolari preparatni 10 ml.dan ertalab va kechqurun 3 kun davomida qa'bul qilishlari tavsiya etiladi. Davolanish muddati odatda- 1 oydan 3 oygacha va 1 oydan so'ng davolash kursini qayta o'tkazish mumkin.

MAXSUS KO'RSATMA

Preparatni qo'llashdan oldin, chayqating.

Flakon ochilgandan so'ng salqin joyda saqlansin. Isitilmasin va muzlatilmasin.

NOJO'YA TA'SIRI

Preparatning ba'zi tarkibiy ingridiyentlariga organizm sezuvchanligi yuqori bo'lgan holatlarda, allergik reaksiyalar ehtimoli mavjud.

Preparatga yuqori sezuvchanlik holati kuzatilsa, preparatni qo'llashdan to'xtash kerak.

PREPARATNING ME'YORDAN ORTIQ QABUL QILINISHI

Preparatni me'yordan ortiq qabul qilinishi oqibatida paydo bo'ladigan noxush holatlar aniqlanmagan.

BOSHQA PREPARATLAR BILAN O‘ZARO TA’SIRI

Boshqa dori vositalari bilan qo‘llanilganda nojo‘ya ta’siri aniqlanmagan.

SAQLASH SHAROITI VA YAROQLILIK MUDDATI

Preparat bolalar qo‘li yetmaydigan, yorug‘likdan himoyalangan joyda +2 S-dan +25°S-gacha haroratda saqlanishi lozim.

Saqlanish muddati – 24 oy.

Manzil: 1000011, Toshkent viloyati, Toshkent tumani,

Tel.: +998 (95) 195-59-00

E-mail: info@anfa.uz, www.anfa.uz